

Guliston davlat universiteti
Kengashining 2026-yil 20-avgustdagi
navbatdan tashqari yig'ilish bayoni bilan
tasdiqlangan

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
TA'LIM SIFATINI ICHKI TA'MINLASH TO'G'RSIDA
NIZOM

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR.

1. Mazkur Nizom Guliston davlat universitetida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini tashkil etish, uning samaradorligini baholash, monitoring qilish va uzluksiz takomillashtirish tartibini belgilaydi.

2. Nizom O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari, oliy ta'lim sohasida belgilangan davlat siyosati yo'nalishlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha milliy talablar hamda xalqaro sifat standartlari asosida ishlab chiqilgan.

3. Mazkur Nizomning asosiy maqsadi Guliston davlat universiteti ta'lim jarayoni sifatini ta'minlash, ta'lim dasturlarining samaradorligini oshirish, talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali ichki sifat tizimini shakllantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Universitetda ichki sifatni ta'minlash tizimining tashkiliy va funksional asoslarini belgilash;

- Ta'lim jarayoni sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash;

- Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va takomillashtirish jarayonlarida sifat mezonlarini joriy etish;

- Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar)ning sifatni ta'minlash jarayonlarida ishtirokini ta'minlash;

- Ta'lim sifati ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish, tahlil etish va natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

- Oliy ta'lim tashkilotining tashqi baholash va akkreditatsiya jarayonlariga tayyorgarligini ta'minlash.

4. Mazkur Nizom universitetining barcha tarkibiy bo'linmalari, fakultetlari, kafedralari, ta'lim jarayonini tashkil etishda ishtirok etuvchi bo'limlari va mas'ul xodimlariga tatbiq etiladi.

2-BOB. ASOSIY TUSHUNCHALAR

5. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Ichki sifatni ta'minlash tizimi - universitetda ta'lim sifati, boshqaruv jarayonlari va ta'lim xizmatlarini muntazam baholash, nazorat qilish hamda takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy, me'yoriy va amaliy chora-tadbirlar majmuasi;

Ta'lim sifati - ta'lim jarayonining belgilangan talablarga, davlat ta'lim standartlariga, malaka talablariga va manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga muvofiqlik darajasi;

Sifat siyosati - oliy ta'lim tashkilotining ta'lim sifati sohasidagi maqsadlari, tamoyillari va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan hujjat;

Monitoring - ta'lim jarayoni va sifat ko'rsatkichlari holatini muntazam kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayoni;

Ichki audit - oliy ta'lim tashkiloti faoliyatida sifat talablariga rioya etilishini baholash maqsadida o'tkaziladigan ichki tekshiruv jarayoni;

Manfaatdor tomonlar - ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi yoki undan manfaatdor bo'lgan shaxslar va tashkilotlar (talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va boshqalar);

O'z-o'zini baholash - oliy ta'lim tashkilotining o'z faoliyatini belgilangan mezonlar asosida mustaqil tahlil qilishi.

6. Guliston davlat universitetida ichki sifatni ta'minlash tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

uzluksiz takomillashtirish tamoyili — ta'lim sifati doimiy ravishda tahlil qilinishi va yaxshilanib borilishi;

shaffoflik tamoyili — sifatni ta'minlash jarayonlarining ochiqligi va axborotlarning ishonchliligi;

manfaatdor tomonlar ishtirok etishi tamoyili — ta'lim sifatiga oid qarorlar qabul qilishda tegishli tomonlarning ishtirokini ta'minlash;

dalillarga asoslangan boshqaruv tamoyili — qarorlarni aniq ma'lumotlar, tahlillar va monitoring natijalari asosida qabul qilish;

akademik halollik tamoyili — ta'lim jarayonida halollik, xolislik va adolat mezonlariga amal qilish;

mas'uliyat va javobgarlik tamoyili — sifatni ta'minlash jarayonida har bir ishtirokchining o'z vazifalari uchun mas'ulligini belgilash.

3-BOB. TA'LIM SIFATNI ICHKI TA'MINLASH TIZIMINING TASHKILY TUZILMASI

10. Universitetda ichki sifatni ta'minlash tizimini samarali tashkil etish va boshqarish oliy ta'lim tashkiloti rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi.

11. Ichki sifatni ta'minlash tizimi universitetning barcha tarkibiy bo'linmalari faoliyatini qamrab oladi va ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida sifatni ta'minlashga yo'naltiriladi.

12. Ichki sifatni ta'minlash tizimining tashkiliy tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- universitet rahbariyati;

- ta'lim sifati nazorati bo'limi;
- fakultetlar sifat komissiyalari;
- kafedralarning sifat uchun mas'ul shaxslari;
- boshqa tegishli tarkibiy bo'linmalar.

13. Universitet rahbariyati ichki sifatni ta'minlash tizimining umumiy boshqaruvini amalga oshiradi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ichki sifat siyosati va uni amalga oshirish mexanizmlarini tasdiqlash;
- sifatni ta'minlash tizimi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- sifat tizimi faoliyati natijalarini ko'rib chiqish;
- ichki va tashqi baholash natijalari asosida takomillashtirish choralari belgilash.
- universitet rahbari ichki sifat tizimi samaradorligi uchun mas'ul hisoblanadi.

14. Ta'lim sifati va nazorati bo'limi universitetda ichki sifat tizimini muvofiqlashtiruvchi asosiy tarkibiy bo'linma hisoblanadi va bo'limning asosiy vazifalari quyidagilar:

- ichki sifat tizimini tashkil etish va muvofiqlashtirish;
- ta'lim jarayoni sifat ko'rsatkichlarini monitoring qilish;
- ta'lim dasturlarini baholash jarayonlarini tashkil etish;
- professor-o'qituvchilar faoliyati sifatini tahlil qilish;
- talabalar va manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish;
- ichki audit va o'z-o'zini baholash jarayonlarini tashkil etish;
- tashqi akkreditatsiya jarayonlariga tayyorgarlik ishlarini muvofiqlashtirish;
- tahliliy hisobotlar tayyorlash;
- bo'lim faoliyati natijalari asosida rahbariyatga taklif va tavsiyalar kiritadi.

15. Fakultetlar ta'lim sifatini ta'minlash tizimining asosiy ijro etuvchi bo'g'inlaridan biri hisoblanadi va quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ta'lim dasturlarining amalga oshirilishini nazorat qilish;
- talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- o'quv jarayoni sifati bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- talabalar fikrini o'rganish va natijalarini tahlil qilish;
- kafedralar faoliyatini muvofiqlashtirish.

16. Kafedralar ta'lim sifatini bevosita ta'minlovchi asosiy bo'linmalar hisoblanadi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- fan dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni takomillashtirish;
- dars sifati monitoringini amalga oshirish;
- talabalar bilim darajasini tahlil qilish;

- professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash;
- ish beruvchilar takliflari asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish.

17. Professor-o'qituvchilar ta'lim sifati tizimining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi va ular:

- sifatli ta'lim berish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- talabalar bilimlarini xolis baholash;
- ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirish;
- akademik halollik talablariga rioya qilish uchun mas'uldirlar.

18. Talabalar ichki sifatni ta'minlash tizimining muhim ishtirokchilari hisoblanadi va ular:

- ta'lim sifati bo'yicha so'rovnomalarda ishtirok etadi;
- taklif va mulohazalarini bildiradi;
- ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha fikrlarini taqdim etadi.

4-BOB. TA'LIM JARAYONI SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

19. Universitetda ta'lim jarayoni sifati ichki sifatni ta'minlash tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

20. Ta'lim jarayoni sifati ta'lim dasturlarining mazmuni, o'qitish usullari, o'quv-uslubiy ta'minot, professor-o'qituvchilar salohiyati, baholash tizimi, ta'lim muhiti va ta'lim oluvchilarning natijalari asosida baholanadi.

21. Ta'lim jarayonini tashkil etishda quyidagi talablarga amal qilinadi:

- ta'lim dasturlarining davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqligi;
- ta'lim mazmunining mehnat bozori talablari bilan uyg'unligi;
- ta'lim jarayonining shaffof va adolatli tashkil etilishi;
- talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

22. Universitetda ta'lim dasturlari ichki sifatni ta'minlash talablari asosida ishlab chiqiladi va muntazam ravishda takomillashtirib boriladi hamda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

- davlat ta'lim standartlari;
- malaka talablari;
- kasbiy standartlar;
- ish beruvchilar talablari;
- sohadagi zamonaviy ilmiy va texnologik o'zgarishlar;
- talabalar va bitiruvchilar fikrlari.

23. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilash jarayonida tegishli kafedralar, fakultetlar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari va boshqa manfaatdor tomonlar ishtirok etadi.

24. Ta'lim dasturlari har bir o'quv yili yakunida tahlil qilinadi va zaruratga ko'ra o'zgartirishlar kiritiladi.

25. O'quv jarayonini tashkil etish sifati tasdiqlangan o'quv rejalar, fan dasturlari, kalendar rejalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi.

26. O'quv jarayonini tashkil etishda:

- o'quv yuklamalarining maqbul taqsimlanishi;
- talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati;
- amaliyotlarni samarali tashkil etish;
- elektron ta'lim resurslaridan foydalanish;
- ta'lim jarayoni monitoringi ta'minlanadi.

27. O'quv jarayonining sifati fakultetlar va kafedralar tomonidan muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

28. Ta'lim jarayonida aniqlangan muammolar bo'yicha ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

29. Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'minlanadi.

30. Professor-o'qituvchilar:

- interaktiv ta'lim usullari;
- raqamli ta'lim platformalari;
- masofaviy ta'lim texnologiyalari;
- keys-stadi, loyiha va amaliy mashg'ulotlar kabi usullardan foydalanishlari lozim.

31. Innovasion ta'lim usullarini joriy etish natijalari kafedra va fakultet darajasida tahlil qilinadi.

32. Talabalar bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash tizimi shaffoflik, xolislik va adolat tamoyillari asosida amalga oshiriladi va baholash jarayoni quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- baholash mezonlarining oldindan belgilanishi;
- talabalarga tushunarli bo'lishi;
- bir xil talablarni qo'llash;
- natijalarning tahlil qilinishi.

33. Talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari muntazam tahlil qilinib, past natijalar sabablari o'rganiladi.

34. Baholash natijalari ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun asos sifatida foydalaniladi.

35. Ta'lim jarayonida akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'minlanadi hamda akademik halollik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mustaqil ta'lim olish;
- plagiatga qarshi kurash;
- baholashda xolislik;
- ilmiy ishlar tayyorlashda halollik;
- ta'lim jarayonida korrupsiya holatlarining oldini olish.

36. Akademik halollik talablari professor-o'qituvchilar va talabalar uchun majburiy hisoblanadi.

37. Ta'lim sifati ko'p jihatdan professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga bog'liq.

38. Professor-o'qituvchilar faoliyati quyidagi yo'nalishlarda baholanadi:

- o'quv jarayonini tashkil etish sifati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash;
- talabalar bilan ishlash samaradorligi;
- malaka oshirish natijalari.

39. Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun malaka oshirish kurslari, seminarlar va ilmiy-amaliy tadbirlarda ishtirok etishi ta'minlanadi.

40. Ta'lim jarayoni sifati doimiy monitoring asosida baholanadi va monitoring jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi:

- talabalar o'zlashtirish darajasi;
- dars mashg'ulotlarining sifati;
- professor-o'qituvchilar faoliyati;
- ta'lim resurslari holati;
- talabalar va ish beruvchilar fikri.

41. Monitoring va baholash natijalari asosida ta'lim jarayonini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

42. Chora-tadbirlar rejasida:

- muammo;
- sabab;
- amalga oshiriladigan chora;
- mas'ul shaxs;
- bajarish muddati;
- kutilayotgan natija ko'rsatiladi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi keyingi monitoring jarayonida qayta baholanadi.

5-BOB. MANFAATDOR TOMONLAR ISHTIROKIDA SIFATNI BAHOLASH

43. Universitetida ichki sifatni ta'minlash tizimining samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonidan manfaatdor bo'lgan tomonlarning fikr va takliflarini o'rganish hamda ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish ta'minlanadi.

44. Manfaaddor tomonlar ishtirokida sifatni baholash ta'lim dasturlarini takomillashtirish, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish va bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

45. Manfaaddor tomonlar quyidagilardan iborat:

- talabalar;
- professor-o'qituvchilar;
- ish beruvchilar;
- bitiruvchilar;
- soha mutaxassisleri;
- hamkor tashkilotlar;
- ota-onalar va jamoatchilik vakillari.

46. Talabalar ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari sifatida ta'lim sifati haqidagi fikr va takliflarini bildirish huquqiga ega va ularning fikrini o'rganish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- elektron va an'anaviy so'rovnomalar;
- ochiq muloqotlar;
- talabalar bilan uchrashuvlar;
- taklif va murojaatlar tizimi;
- ta'lim jarayoni bo'yicha fikrlarni tahlil qilish.

47. Talabalar so'rovnomalarida quyidagi masalalar o'rganiladi:

- fanlarni o'qitish sifati;
- professor-o'qituvchilarning pedagogik mahorati;
- o'quv-uslubiy materiallarning sifati;
- baholash jarayonining adolatliliigi;
- axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari;
- ta'lim muhiti va shart-sharoitlar.

Talabalar so'rovnomalari natijalari tahlil qilinib, aniqlangan muammolar bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

47. Professor-o'qituvchilar ichki sifatni ta'minlash tizimining muhim ishtirokchilari hisoblanadi va ularning taklif va fikrlari:

- ta'lim dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv jarayonini yaxshilash;
- o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish;

- ilmiy-tadqiqot faoliyatini oshirish jarayonlarida hisobga olinadi.

Professor-o'qituvchilar bilan o'tkaziladigan so'rov va muhokamalar natijalari sifatni oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi.

48. Ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida ish beruvchilar bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi va ish beruvchilar quyidagi jarayonlarda ishtirok etishi mumkin:

- ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilash;
- malaka talablarini takomillashtirish;
- o'quv amaliyotlarini tashkil etish;
- bitiruvchilar tayyorgarligi sifatini baholash;
- kasbiy kompetensiyalarni belgilash.

49. Ish beruvchilarning fikrlari quyidagi shakllarda o'rganiladi:

- so'rovnomalar;
- davra suhbatlari;
- uchrashuvlar;
- hamkorlik kengashlari yig'ilishlari;
- amaliyot natijalari tahlili.

Ish beruvchilardan olingan takliflar ta'lim dasturlarini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

49. Oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchilarning kasbiy faoliyati va mehnat bozorida holatini o'rganish maqsadida bitiruvchilar monitoringini amalga oshiradi va u quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- ish bilan ta'minlanish darajasi;
- egallagan lavozimi;
- olingan ta'limning kasbiy faoliyatga muvofiqligi;
- ta'lim jarayoni bo'yicha fikrlari;
- qo'shimcha tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyojlari.

Bitiruvchilardan olingan ma'lumotlar ta'lim dasturlarini takomillashtirishda foydalaniladi.

50. Manfaatdor tomonlardan olingan fikr va takliflar tegishli mas'ul bo'linmalar tomonidan umumlashtiriladi va tahlil qilinadi va natijalarda:

- aniqlangan muammolar;
- ularning sabablari;
- takomillashtirish bo'yicha takliflar;
- mas'ullar;
- amalga oshirish muddatlari belgilanadi.

Tahlil natijalari universitet Kengashi va rahbariyatiga taqdim etiladi.

6-BOB. TA'LIM SIFATI MONITORINGI VA TAHLILI

51. Universitetda ta'lim sifati monitoringi ichki sifatni ta'minlash tizimining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

52. Monitoringning maqsadi — ta'lim jarayoni holatini muntazam o'rganish, sifat ko'rsatkichlarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli ma'lumotlar shakllantirishdan iborat.

53. Ta'lim sifati monitoringi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- tizimlilik;
- xolislik;
- shaffoflik;
- ishonchli ma'lumotlarga asoslanish;
- muntazam tahlil va takomillashtirish.

Monitoring natijalari oliy ta'lim tashkilotining strategik boshqaruvi va ta'lim jarayonini takomillashtirishda foydalaniladi.

54. Ta'lim sifati monitoringining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayoni sifati holatini aniqlash;
- ta'lim dasturlari samaradorligini baholash;
- talabalar o'zlashtirish natijalarini tahlil qilish;
- professor-o'qituvchilar faoliyati sifatini o'rganish;
- ta'lim resurslari va infratuzilma holatini baholash;
- manfaatdor tomonlar qoniqish darajasini aniqlash;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Monitoring natijalari asosida ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan takliflar shakllantiriladi.

56. Ichki sifat monitoringi quyidagi ob'yektlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- ta'lim dasturlari;
- o'quv rejalar va fan dasturlari;
- o'quv jarayonini tashkil etish holati;
- talabalar bilim va ko'nikmalari;
- professor-o'qituvchilar faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot ishlari;
- moddiy-texnik baza;
- axborot-resurs ta'minoti;
- talabalar va ish beruvchilar qoniqishi.

Monitoring ob'yektlari oliy ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda kengaytirilishi mumkin.

57. Ta'lim sifati holatini baholash uchun sifat ko'rsatkichlari shakllantiriladi va asosiy sifat ko'rsatkichlari quyidagilarni qamrab oladi:

Ta'lim jarayoni bo'yicha:

- ta'lim dasturlarining talablarga muvofiqligi;
- fanlarning o'quv-uslubiy ta'minoti;
- dars mashg'ulotlarining sifati;
- talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari.

Talabalar faoliyati bo'yicha:

- akademik o'zlashtirish darajasi;
- bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishi;
- talabalarning ta'lim jarayonidan qoniqish darajasi.

Professor-o'qituvchilar bo'yicha:

- ilmiy salohiyat darajasi;
- malaka oshirish natijalari;
- pedagogik faoliyat samaradorligi;
- ilmiy nashrlar va loyihalarda ishtirok.

Boshqaruv va resurslar bo'yicha:

- axborot tizimlaridan foydalanish;
- moddiy-texnik baza holati;
- ta'lim uchun yaratilgan sharoitlar.

58. Ta'lim sifati monitoringi reja asosida amalga oshiriladi va monitoring jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1-bosqich — monitoring maqsad va vazifalarini belgilash;
- 2-bosqich — zarur ma'lumotlarni yig'ish;
- 3-bosqich — ma'lumotlarni tahlil qilish;
- 4-bosqich — natijalarni baholash;
- 5-bosqich — takomillashtirish choralarini ishlab chiqish.

Monitoring jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi:

- hujjatlarni tahlil qilish;
- so'rovnomalar o'tkazish;
- suhbat va intervyular;
- darslarni kuzatish;
- statistik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- ichki audit natijalarini o'rganish.

59. Monitoring natijalari asosida ta'lim sifati bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlanadi.

Tahlil jarayonida:

- ijobiy natijalar;
- mavjud muammolar;

- ularning kelib chiqish sabablari;
- rivojlantirish imkoniyatlari;
- takomillashtirish choralari aniqlanadi.

Tahlil natijalari oliy ta'lim tashkiloti rahbariyati, fakultetlar va kafedralarga taqdim etiladi.

60. Monitoring va tahlil natijalari asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejası ishlab chiqiladi.

Chora-tadbirlar rejasida quyidagilar belgilanadi:

- aniqlangan muammo;
- amalga oshiriladigan vazifalar;
- mas'ul shaxslar;
- bajarish muddatlari;
- kutilayotgan natijalar.

Chora-tadbirlarning bajarilishi belgilangan tartibda nazorat qilinadi.

61. Ta'lim sifati monitoringi natijalari asosida yillik va davriy hisobotlar tayyorlanadi va hisobotlarda:

- monitoring natijalari;
- sifat ko'rsatkichlari tahlili;
- aniqlangan muammolar;
- amalga oshirilgan ishlar;
- kelgusi vazifalar aks ettiriladi.

Hisobot materiallari ichki sifat tizimi hujjatlari sifatida belgilangan tartibda saqlanadi.

7-BOB. ICHKI SIFAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH

62. Oliy ta'lim tashkilotida ichki sifat tizimi holatini aniqlash maqsadida o'z-o'zini baholash jarayoni o'tkaziladi va o'z-o'zini baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1-bosqich — baholash maqsadi va vazifalarini belgilash;
- 2-bosqich — baholash guruhini shakllantirish;
- 3-bosqich — zarur ma'lumot va hujjatlarni yig'ish;
- 4-bosqich — tahlil va baholash ishlarini amalga oshirish;
- 5-bosqich — o'z-o'zini baholash hisobotini tayyorlash;
- 6-bosqich — takomillashtirish choralarini belgilash.

O'z-o'zini baholash jarayonida ta'lim sifati bilan bog'liq barcha yo'nalishlar tahlil qilinadi.

63. Ichki sifat tizimini baholash jarayonida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi.

64. Universitet ichki sifat tizimi orqali tashqi baholash va akkreditatsiya jarayonlariga muntazam tayyorgarlik ko'rib boradi.

Tayyorgarlik jarayonida:

- akkreditatsiya mezonlari va indikatorlari tahlil qilinadi;
- zarur hujjatlar shakllantiriladi;
- o'z-o'zini baholash hisoboti tayyorlanadi;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish ishlari amalga oshiriladi.

Tashqi ekspertlar tavsiyalari ichki sifat tizimini takomillashtirishda foydalaniladi.

8-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

64. Mazkur Nizom universitetda ichki sifatni ta'minlash tizimini tashkil etish, boshqarish, baholash va takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

65. Nizom talablari universitetning barcha tarkibiy bo'linmalari, fakultetlar, kafedralar, professor-o'qituvchilar, xodimlar va ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi.

66. Ichki sifatni ta'minlash tizimi doirasida shakllantirilgan hujjatlar belgilangan tartibda yuritiladi va saqlanadi.

Quyidagi hujjatlar ichki sifat tizimining asosiy hujjatlari hisoblanadi:

- ichki sifatni ta'minlash to'g'risidagi Nizom;
- monitoring natijalari;
- so'rovnoma materiallari;
- o'z-o'zini baholash hisobotlari;
- takomillashtirish chora-tadbirlari rejalari.

Hujjatlarni saqlash muddati amaldagi me'yoriy talablar asosida belgilanadi.

67. Oliy ta'lim tashkiloti ichki sifatni ta'minlash jarayonlari bo'yicha tegishli axborotlarni manfaatdor tomonlarga yetkazishni ta'minlaydi.

68. Sifat ko'rsatkichlari, ta'lim natijalari va takomillashtirish ishlari haqidagi ma'lumotlar belgilangan tartibda rasmiy axborot resurslarida e'lon qilinishi mumkin.

69. Axborotlarni taqdim etishda ma'lumotlarning haqqoniyligi, dolzarbligi va ishonchliligi ta'minlanadi.

70. Mazkur Nizom talablarini bajarmagan mas'ul shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

71. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari o'z yo'nalishlari bo'yicha ichki sifat talablarining bajarilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

72. Professor-o'qituvchilar va xodimlar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarni bartaraf etish bo'yicha belgilangan talablarga rioya qilishi lozim.

73. Mazkur Nizom universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

74. Nizom kuchga kirgan kundan boshlab universitetning ichki sifatni ta'minlash sohasidagi asosiy me'yoriy hujjati hisoblanadi.

75. Ushbu Nizom talablari asosida oliy ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini oshirish, ichki nazorat va uzluksiz takomillashtirish ishlari amalga oshiriladi.

76. Ichki sifatni ta'minlash tizimi oliy ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini kafolatlash, rivojlantirish va tashqi baholash jarayonlariga tayyorgarlikni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

1. TA'LIM DASTURINI BAHOLASH SHAKLI

T/r	Ko'rsatkichlar	Ma'lumot
1	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	
2	Fakultet nomi	
3	Kafedra nomi	
4	Ta'lim yo'nalishi nomi	
5	Ta'lim yo'nalishi kodi	
6	Ta'lim shakli	
7	Ta'lim davomiyligi	
8	Baholash sanasi	
9	Baholashni o'tkazgan komissiya tarkibi	

2. TA'LIM DASTURINING MAQSADI VA MAZMUNINI BAHOLASH

№	Baholash mezonlari	Mavjud holati	Baho (1–5)	Izoh va takliflar
1	Ta'lim dasturining maqsadi aniq belgilanganligi			
2	Dastur maqsadlarining tashkilot missiyasi va strategik rejasiga muvofiqligi			
3	Ta'lim dasturining davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga mosligi			
4	Kutilayotgan ta'lim natijalarining belgilanganligi			
5	Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganligi			

3. TA'LIM DASTURINING MEHNAT BOZORI TALABLARIGA MOSLIGI

№	Baholash mezonlari	Mavjud holati	Baho (1–5)	Izoh va takliflar
1	Ish beruvchilar ehtiyojlari o'rganilganligi			

2	Ish beruvchilar takliflari dasturda aks ettirilganligi			
3	Kasbiy fanlar mazmuni zamonaviy talablarga mosligi			
4	Amaliyot tashkilotlari bilan hamkorlik mavjudligi			
5	Bitiruvchilarning mehnat bozorida ehtiyoji tahlil qilinganligi			

4. O'QUV REJA VA FANLAR TARKIBINI BAHOLASH

№	Baholash mezon	Mavjud holati	Baho (1–5)	Izoh va takliflar
1	O'quv rejaning talablarga muvofiqligi			
2	Majburiy va tanlov fanlari nisbati maqbulligi			
3	Fanlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjudligi			
4	Zamonaviy va innovasion fanlar kiritilganligi			
5	Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim ulushi			

5. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH SIFATI

№	Baholash mezon	Mavjud holati	Baho (1–5)	Izoh va takliflar
1	O'qitish metodlari samaradorligi			
2	Raqamli texnologiyalardan foydalanish holati			
3	Elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik			
4	Talabalar mustaqil ta'limi tashkil etilganligi			
5	Amaliyotlarni tashkil etish sifati			

6. PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR TARKIBINI BAHOLASH

№	Baholash mezonl	Mavjud holati	Baho (1–5)	Izoh va takliflar
1	Fanlarni o‘qitish uchun mutaxassislar yetarliligi			
2	Ilmiy daraja va unvonga ega professor-o‘qituvchilar ulushi			
3	Professor-o‘qituvchilar malaka oshirganligi			
4	Ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi			
5	Pedagogik mahorati baholanishi			

7. TALABALAR FAOLIYATI VA NATIJALARI

№	Baholash mezonl	Mavjud holati	Baho (1–5)	Izoh va takliflar
1	Talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari			
2	Bitiruvchilarning ish bilan ta‘minlanishi			
3	Talabalarning ta‘limdan qoniqish darajasi			
4	Akademik mobillik imkoniyatlari			
5	Talabalar ilmiy faolligi			

8. TA‘LIM DASTURINING MODDIY-TEXNIK VA AXBOROT TA‘MINOTI

№	Baholash mezonl	Mavjud holati	Baho (1–5)	Izoh va takliflar
1	Auditoriyalar bilan ta‘minlanganlik			
2	Laboratoriya va amaliy bazalar holati			
3	Axborot-resurs markazi imkoniyatlari			
4	Elektron platformalardan foydalanish			
5	O‘quv-uslubiy materiallar bilan ta‘minlanganlik			

9. MANFAATDOR TOMONLAR FIKRINI BAHOLASH

№	Manfaatdor tomon	Olingan fikrlar	Takliflar	Amalga oshirish holati
1	Talabalar			
2	Professor-o'qituvchilar			
3	Ish beruvchilar			
4	Bitiruvchilar			

10. YAKUNIY BAHO VA XULOSA

Ta'lim dasturining umumiy bahosi:

- ☐ A'lo (5 ball)
- ☐ Yaxshi (4 ball)
- ☐ Qoniqarli (3 ball)
- ☐ Takomillashtirish talab etiladi (1–2 ball)

Aniqlangan kuchli tomonlar:

1. _____
2. _____
3. _____

Aniqlangan muammolar:

1. _____
2. _____
3. _____

Takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar:

№	Chora-tadbir	Mas'ul	Muddat	Kutilayotgan natija

Komissiya xulosasi:

Komissiya raisi: _____

A'zolar: _____

Sana: «__» _____ 20__ yil

TALABALARNING TA'LIM SIFATI BO'YICHA SO'ROVNOMA SHAKLI

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Oliy ta'lim tashkiloti: _____

Fakultet: _____

Ta'lim yo'nalishi: _____

Kurs: _____

Ta'lim shakli: ☐ Kunduzgi ☐ Kechki ☐ Sirtqi ☐ Masofaviy

So'rovnoma o'tkazilgan sana: «_» _____ **20** ____ yil

Izoh: So'rovnoma natijalari ta'lim sifatini oshirish maqsadida tahlil qilinadi.
Javoblar maxfiyligi ta'minlanadi.

2. TA'LIM JARAYONINI BAHOLASH

Quyidagi savollarni 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala asosida baholang:

1 — juda past

2 — past

3 — qoniqarli

4 — yaxshi

5 — yuqori daraja

№	Baholash mezon	1	2	3	4	5
1	Ta'lim dasturining mazmuni va tuzilishi qoniqarlimi?					
2	Fanlar mazmuni kasbiy faoliyat uchun yetarlimi?					
3	O'quv rejadagi fanlar ketma-ketligi maqbul tashkil etilganmi?					
4	Fanlar bo'yicha o'quv materiallari yetarlimi?					
5	Amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilganmi?					

4. PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR FAOLIYATINI BAHOLASH

№	Baholash mezonlari	1	2	3	4	5
1	O‘qituvchi fanni chuqur va tushunarli bayon qiladi					
2	Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanadi					
3	Talabalar bilan muloqoti samarali					
4	Dars mashg‘ulotlariga tayyorgarlik darajasi yuqori					
5	Baholash jarayonida xolislikka amal qiladi					

5. BAHOLASH TIZIMI VA AKADEMIK HALOLLIK

№	Savol	Ha	Qisman	Yo‘q
1	Baholash mezonlari oldindan ma’lum qilinadimi?			
2	Nazorat ishlari adolatli baholanadimi?			
3	Akademik halollik talablari tushuntirilganmi?			
4	Plagiatning oldini olish choralari mavjudmi?			

6. TA’LIM SHAROITLARI VA INFRATUZILMA

№	Baholash mezonlari	1	2	3	4	5
1	Auditoriyalar holati					
2	Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati					
3	Kutubxona va elektron resurslar imkoniyati					
4	Laboratoriya va amaliy bazalar holati					

7. ELEKTRON TA'LIM VA RAQAMLI TIZIMLAR

№	Savol	Ha	Qisman	Yo'q
1	Elektron ta'lim platformalaridan foydalanasizmi?			
2	O'quv materiallari elektron shaklda mavjudmi?			
3	HEMIS yoki boshqa axborot tizimlaridan foydalanish qulaymi?			

8. UMUMIY QONIQISH DARAJASI

1. Oliy ta'lim tashkilotida olayotgan ta'limingizdan umumiy qoniqish darajangiz:

- ☐ Juda yuqori
- ☐ Yuqori
- ☐ Qoniqarli
- ☐ Past
- ☐ Qoniqarsiz

2. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha takliflaringiz:

3. Sizga eng ko'p qiyinchilik tug'dirayotgan masalalar:

9. YAKUNIY TAHLIL QISMI (MAS'UL BO'LIM TOMONIDAN TO'LDIRILADI)

So'rovnomada ishtirok etgan talabalar soni: _____ nafar

O'rtacha qoniqish ko'rsatkichi: _____ %

Aniqlangan muammolar:

1. _____
2. _____
3. _____

So'rovnomani ishlab chiqqan: _____

Tasdiqlayman: _____

Sana: «___» _____ 20 ___ yil

PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH SO‘ROVNOMASI

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Oliy ta'lim tashkiloti: _____

Fakultet: _____

Kafedra: _____

F.I.Sh.: _____

Ilmiy darajasi va unvoni: _____

Lavozimi: _____

Ish staji: _____

So'rovnoma o'tkazilgan sana: «__» _____ 20__ yil

2. MAQSAD

Mazkur so'rovnoma professor-o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida o'tkaziladi.

3. O'ZINI-O'ZI BAHOLASH

Quyidagi mezonlarni 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala asosida baholang:

1 — juda past

2 — past

3 — qoniqarli

4 — yaxshi

5 — yuqori

3.1. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

№	Baholash mezonlari	1	2	3	4	5
1	Fan sillabuslari va o'quv materiallari o'z vaqtida tayyorlangan					

2	Dars mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladi					
3	Talabalarning mustaqil ta'limi samarali tashkil etiladi					
4	Amaliyot va nazariy bilimlar o'rtasida bog'liqlik ta'minlanadi					
5	Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalaniladi					

3.2. PEDAGOGIK MAHORAT VA KASBIY RIVOJLANISH

№	Baholash mezonlari	1	2	3	4	5
1	Mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni muntazam yangilab boraman					
2	Malaka oshirish kurslarida ishtirok etaman					
3	Yangi o'qitish usullarini amaliyotga joriy qilaman					
4	Talabalar bilan samarali muloqot o'rnataman					
5	Ta'lim sifati bo'yicha talabalar fikrini hisobga olaman					

3.3. O'QUV-USLUBIY FAOLIYAT

№	Baholash mezonlari	1	2	3	4	5
1	O'quv-uslubiy majmualar muntazam yangilanadi					
2	Elektron o'quv resurslari ishlab chiqilgan					
3	Darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda ishtirok etaman					
4	Fan dasturlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar beraman					

3.4. ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATI

№	Baholash mezonlari	1	2	3	4	5
1	Ilmiy maqolalar va nashrlar tayyorlayman					
2	Ilmiy loyihalarda ishtirok etaman					

3	Talabalarni ilmiy ishlarga jalb qilaman					
4	Mutaxassislik sohasida yangi ilmiy natijalardan foydalanaman					

4. TA'LIM SIFATINI OSHIRISH BO'YICHA FIKRLAR

4.1. Ta'lim jarayonidagi mavjud muammolar:

1. _____
2. _____
3. _____

4.2. Takomillashtirish bo'yicha takliflar:

1. _____
2. _____
3. _____

5. KAFEDRA VA OTM RAHBARIYATI TOMONIDAN BAHOLASH QISMI

(Mas'ul shaxs tomonidan to'ldiriladi)

№	Ko'rsatkich	Baholash natijasi
1	Dars mashg'ulotlarining sifati	
2	O'quv-uslubiy ta'minot holati	
3	Talabalar fikri asosida baholash	
4	Ilmiy faollik ko'rsatkichlari	
5	Malaka oshirish natijalari	

5. YAKUNIY XULOSA

Professor-o'qituvchining ta'lim sifatiga qo'shgan hissasi:

- ☐ Yuqori darajada
- ☐ Yaxshi darajada
- ☐ Qoniqarli
- ☐ Takomillashtirish talab etiladi

Kafedra mudiri: _____

Fakultet dekani: _____

Ta'lim sifati bo'limi mas'uli: _____

Sana: «___» _____ 20___ yil

**ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDA TA'LIM DASTURI VA
BITIRUVCHILAR TAYYORGARLIGI SIFATINI BAHOLASH
SO'ROVNOMASI**

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Oliy ta'lim tashkiloti: _____

Fakultet: _____

Ta'lim yo'nalishi: _____

Ish beruvchi tashkilot nomi: _____

Tashkilot faoliyat sohasi: _____

So'rovnomada ishtirok etgan shaxs F.I.Sh.: _____

Lavozimi: _____

Sana: «_» _____ 20 yil

2. SO'ROVNOMA MAQSADI

Mazkur so'rovnoma oliy ta'lim tashkilotida tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash, ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish hamda ish beruvchilar takliflarini inobatga olish maqsadida o'tkaziladi.

**3. BITIRUVCHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI
BAHOLASH**

Quyidagi mezonlarni 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala asosida baholang:

1 — juda past

2 — past

3 — qoniqarli

4 — yaxshi

5 — yuqori

№	Baholash mezonl	1	2	3	4	5
1	Bitiruvchilarning nazariy bilim darajasi					
2	Kasbiy amaliy ko'nikmalar darajasi					
3	Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyati					
4	Muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati					
5	Jamoadashlash ko'nikmasi					
6	Axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi					
7	Muloqot va ish yuritish madaniyati					

4. TA'LIM DASTURINI BAHOLASH

№	Baholash mezonl	1	2	3	4	5
1	Ta'lim dasturi sohaning zamonaviy talablariga mosligi					
2	Fanlar mazmuni ishlab chiqarish ehtiyojlarini qamrab olganligi					
3	Amaliy mashg'ulotlar ulushi yetarliligini					
4	Talabalarda shakllantiriladigan kompetensiyalar talablarga mosligi					
5	Tanlov fanlari mazmunini takomillashtirish zarurati					

5. ISH BERUVCHILARNING TA'LIM JARAYONIDAGI ISHTIROKI

№	Baholash mezonl	1	2	3	4	5
1	Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etganmisiz?					
2	Kafedra bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganmi?					
3	Talabalar amaliyotini tashkil etishda ishtirok etasizmi?					
4	Bitiruv malakaviy ishlari mavzularini shakllantirishda ishtirok etasizmi?					
5	Mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj haqida ma'lumot berib borasizmi?					

6. BITIRUVCHILARDA YeTISHMAYOTGAN KO'NIKMALAR

Sizning fikringizcha, bitiruvchilarda qaysi ko'nikmalarni yanada rivojlantirish zarur?

- ☐ Amaliy kasbiy ko'nikmalar
- ☐ Raqamli texnologiyalardan foydalanish
- ☐ Chet tillarini bilish
- ☐ Tadqiqot va tahlil qilish qobiliyati
- ☐ Muloqot va boshqaruv ko'nikmalari
- ☐ Boshqa: _____

7. TA'LIM DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR

1. _____
2. _____
3. _____

8. HAMKORLIK YO'NALISHLARI

Oliy ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikning qaysi yo'nalishlarini rivojlantirish zarur?

- ☐ Talabalar amaliyoti
- ☐ Qo'shma ilmiy tadqiqotlar
- ☐ Malaka oshirish kurslari
- ☐ Mutaxassislik fanlarini o'qitishga jalb qilish
- ☐ Ishga joylashtirish
- ☐ Boshqa: _____

9. YAKUNIY BAHO

Sizning fikringizcha, mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar:

- ☐ Mehnat bozori talablariga to'liq javob beradi
- ☐ Asosan javob beradi, ayrim takomillashtirishlar zarur
- ☐ Qo'shimcha o'zgartirishlar talab etiladi

10. TAHLIL QISMI

(Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan to'ldiriladi)

Ishtirok etgan ish beruvchilar soni: _____ nafar

O'rtacha baholash ko'rsatkichi: _____ ball

Asosiy takliflar:

1. _____
2. _____
3. _____

So'rovnoma uchun mas'ul: _____

Kafedra mudiri: _____

Ta'lim sifati bo'limi rahbari: _____

Sana: «___» _____ 20 ___ yil

BITIRUVCHILAR MONITORINGI VA ULARNING TA'LIM SIFATI BO'YICHA FIKRLARINI O'RGANISH SHAKLI

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Oliy ta'lim tashkiloti: _____

Fakultet: _____

Ta'lim yo'nalishi: _____

Ta'lim yo'nalishi kodi: _____

Bitirgan yili: _____

Bitiruvchining F.I.Sh.: _____

Tug'ilgan yili: _____

Hozirgi ish joyi: _____

Lavozimi: _____

Ishga joylashgan sanasi: _____

So'rovnoma o'tkazilgan sana: «__» _____ 20__ yil

2. BITIRUVCHINING KASBIY FAOLIYATI HOLATI

№	Ko'rsatkich	Javob
1	Hozirgi bandlik holati	☐ Ishlaydi ☐ Ishsiz ☐ Ta'limni davom ettirmoqda
2	Ish joyi ta'lim yo'nalishiga mosligi	☐ To'liq mos ☐ Qisman mos ☐ Mos emas
3	Ishga joylashish muddati	☐ 3 oygacha ☐ 3–6 oy ☐ 6 oydan keyin
4	Lavozim darajasi	☐ Mutaxassis ☐ Rahbarlik lavozimi ☐ Boshqa
5	Olingan ta'limdan foydalanish darajasi	☐ Yuqori ☐ O'rta ☐ Past

3. OLIY TA'LIMDA OLINGAN BILIM VA KO'NIKMALARNI BAHOLASH

Quyidagi mezonlarni 1 dan 5 gacha bo'lgan shkala asosida baholang:

1 — juda past

2 — past

3 — qoniqarli

4 — yaxshi

5 — yuqori

№	Baholash mezoni	1	2	3	4	5
1	Mutaxassislik bo'yicha nazariy bilimlar					
2	Amaliy kasbiy ko'nikmalar					
3	Muammolarni tahlil qilish qobiliyati					
4	Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi					
5	Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati					
6	Axborot izlash va tahlil qilish ko'nikmasi					
7	Jamoadi ishlash qobiliyati					
8	Chet tillaridan foydalanish imkoniyati					

4. TA'LIM JARAYONI BO'YICHA FIKRLAR

4.1. O'qish davrida siz uchun eng foydali bo'lgan jihatlar:

- ☐ Nazariy bilimlar
- ☐ Amaliy mashg'ulotlar
- ☐ Ishlab chiqarish amaliyoti
- ☐ Ilmiy-tadqiqot ishlari
- ☐ Loyiha ishlari
- ☐ Elektron ta'lim resurslari
- ☐ Boshqa: _____

4.2. Ta'lim jarayonida qaysi yo'nalishlarni yaxshilash kerak?

1. _____

2. _____
3. _____

4. TA'LIM DASTURINI BAHOLASH

№	Savol	Ha	Qisman	Yo'q
1	Ta'lim dasturi kasbiy faoliyatingizga tayyorlashga yordam berdimi?			
2	O'qitilgan fanlar ish faoliyatingizda kerak bo'lyaptimi?			
3	Amaliyotlar yetarli darajada tashkil etilganmidi?			
4	Tanlov fanlarini tanlash imkoniyati mavjud edimi?			
5	O'quv jarayoni zamonaviy talablarga mos edimi?			

5. ISH BERUVCHI TALABLARI VA QO'SHIMCHA KO'NIKMALAR

Sizning fikringizcha, hozirgi mehnat bozorida quyidagi ko'nikmalar muhim:

- ☐ Raqamli texnologiyalar
- ☐ Chet tili
- ☐ Tadbirkorlik ko'nikmalari
- ☐ Loyihalar boshqaruvi
- ☐ Muammolarni hal qilish qobiliyati
- ☐ Muloqot madaniyati
- ☐ Boshqa: _____

6. BITIRUVCHINING TAKLIF VA TAVSIYALARI

Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha takliflar:

1. _____
2. _____

3. _____

Qaysi fanlarni yangilash yoki qo‘shimcha kiritish kerak?

7. BITIRUVCHI QONIQISH DARAJASI

Oliy ta’lim tashkilotida olgan ta’limingizdan umumiy qoniqish darajangiz:

☐ Juda yuqori

☐ Yuqori

☐ Qoniqarli

☐ Past

☐ Qoniqarsiz

8. MONITORING NATIJALARINI TAHLIL QILISH QISMI

(Oliy ta’lim tashkiloti mas’ullari tomonidan to’ldiriladi)

So‘rovda ishtirok etgan bitiruvchilar soni: _____ nafar

Ish bilan ta’minlanganlar ulushi: _____ %

Ta’lim yo‘nalishiga mos ishda ishlayotganlar: _____ %

O‘rtacha qoniqish darajasi: _____ %

Tuzdi: _____

Ta’lim sifati bo‘limi mas’uli: _____

Kafedra mudiri: _____

Sana: «__» _____ 20__ yil